BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

TA'LIM TRANSFORMATSIYASI

ILMIY – METODIK JURNAL

№. 2

BUXORO – 2026

2026, 2-son, aprel-may
"Ta'lim transformatsiyasi"
Ilmiy-metodik jurnal

BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI TA'LIM TRANSFORMATSIYA JURNALI 2022

O'QUVCHILARNING NUTQIY ETIKET KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI

Axmedova Dildora Bahodirovna, BuxDPI O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi professori, f.f.d. (DSc)
daxmedova77@gmail.com
Jo'rayeva Mohigul Baxtiyor qizi, BuxDPI tayanch doktoranti
mohiguljurayeva95@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'zbek tilshunosligida nutqiy etiket birliklarining shakllanishi, tadqiq etilish bosqichlari hamda ilmiy yo'nalishlari tahlil qilinadi. Nutqiy etiket dastlab axloqiy-didaktik manbalar doirasida talqin etilgan bo'lsa, keyingi davrlarda nutq madaniyati, notiqlik san'ati va nutq etikasi bilan uzviy bog'liq holda tilshunoslik tadqiqotlari obyekti sifatida shakllandi. Maqolada leksik-semantik, sintaktik, pragmatik va terminologik yondashuvlar bilan bir qatorda, lingvokulturologik, antroposentrik hamda kognitiv paradigmalar asosida olib borilgan izlanishlar yoritiladi. Shuningdek, nutqiy etiketning milliy mentalitet, kommunikativ vaziyat, ijtimoiy munosabatlar hamda nolisoniy vositalar bilan bog'liqligi ochib beriladi.

Kalit so'zlar: nutqiy etiket, nutq madaniyati, muloqot shakllari, lingvokulturologiya, kognitiv tilshunoslik, sotsiolingvistika, pragmatika, milliy mentalitet, nolisoniy vositalar, akademik litsey.

ВОПРОСЫ РАЗВИТИЯ РЕЧЕВО-ЭТИКЕТИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ УЧАЩИХСЯ

Ахмедову Дилдору Баходировну , БухГПИ Узбекский язык и литература кафедры, д.ф.н. (DSc)
daxmedova77@gmail.com
Джураева Мохигуль Бахтиёр кизи, Базовый докторант БухГПИ
mohiguljurayeva95@gmail.com

Аннотация. В данной статье анализируются формирование единиц речевого этикета в узбекском языкознании, этапы их исследования и научные направления. Речевой этикет изначально интерпретировался в рамках нравственно-дидактических источников, а в последующие периоды сформировался как объект лингвистических исследований в неразрывной связи с культурой речи, ораторским искусством и этикой речи. В статье наряду с лексико-семантическим, синтаксическим, прагматическим и терминологическим подходами освещаются исследования, проведенные на основе лингвокультурологических, антропоцентрических и когнитивных парадигм. Также раскрывается связь речевого этикета с национальным менталитетом, коммуникативной ситуацией, социальными отношениями и неязыковыми средствами.

Ключевые слова: речевой этикет, культура речи, формы общения, лингвокультурология, когнитивная лингвистика, социолингвистика, прагматика, национальный менталитет, неязыковые средства, академический лицей.

ISSUES OF DEVELOPING STUDENTS' SPEECH ETICKET COMPETENCE

Akhmedova Dildora Bakhodirovna, BSPI Uzbek language and literature professor of the department, d.ph.s. (DSc)
daxmedova77@gmail.com
Juraeva Mokhigul Bakhtiyor kizi, Ph.D. student at BSPI
mohiguljurayeva95@gmail.com

Abstract. This article analyzes the formation, research stages, and scientific directions of speech etiquette units in Uzbek linguistics. Speech etiquette was initially interpreted within the framework of moral and didactic sources, and in subsequent periods, it was formed as an object of linguistic research in close connection with speech culture, oratory, and speech ethics. The article highlights research conducted based on lexico-semantic, syntactic, pragmatic, and terminological approaches, as well as linguoculturological, anthropocentric, and cognitive paradigms. It also reveals the connection of speech etiquette with the national mentality, communicative situation, social relations and non-linguistic means.

Keywords: speech etiquette, speech culture, forms of communication, linguoculturology, cognitive

2026, 2-son, aprel-may
"Ta'lim transformatsiyasi"
Ilmiy-metodik jurnal

BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI TA'LIM TRANSFORMATSIYA JURNALI 2022

linguistics, sociolinguistics, pragmatics, national mentality, non-linguistic means, academic lyceum.

Kirish. O‘zbek tilshunosligida nutqiy etiketni ifodalovchi vositalar, ko‘plab xalqlarda bo‘lgani kabi, dastlab madaniyatshunoslik va odob-axloq me'yorlari tarkibida o‘rganilgan. Bu davr adabiyotlarida nutqiy etiket (xususan, muloqot shakllari) til birligi sifatida emas, balki tarbiya vositasi va shaxsiy kamolot ifodasi sifatida talqin etiladi. Shuning uchun bu asarlar mohiyatiga ko‘ra ilmiy tahlildan ko‘ra ko‘proq didaktik xarakterga ega: pand-nasihat, yo‘l-yo‘riq ko‘rsatish, amaliy odob qoidalarini singdirish ustuvor.

Bu turkumga Kaykovusning "Qobusnoma"si, Forobiyning "*Fozil odamlar shahri"*, Ahmad Yugnakiyning "*Hibatul-haqoyiq"*, Sa'diy Sheroziyning "*Guliston"* va "*Bo‘ston"*, Alisher Navoiyning "*Mahbubul-qulub"*, Abdulla Avloniyning "*Turkiy guliston yoxud axloq" asari*, shuningdek, "Pandnomalar" kiradi.

Keyingi bosqichda nutqiy etiket birliklari tilshunoslik doirasida o‘rganila boshladi. Dastlab ular notiqlik, nutq madaniyati va nutq etikasi mavzulari tarkibida ko‘rib chiqildi. Bu jarayonda rus tilshunosligi an'anasi sezilarli ta'sir ko‘rsatdi; muloqot, uslub, axloq, muomala sirlari va usullariga bag‘ishlangan ishlar orqali nutqiy etiket birliklari alohida tadqiqot obyekti sifatida shakllandi. Shu davrda ingliz va o‘zbek tilshunosligida ham qator tadqiqotlar olib borildi; inson muloqot nutqiga doir masalalar turli nomlar ostida yondashilsa-da, markazda doimo nutqiy muomala turdi.

O‘zbek tilida nutq madaniyati va nutqiy odatlarning nazariy asoslarini yaratish ishiga S.Ibrohimov, R.Kungurov, X.Doniyorovlar poydevor qo‘ydilar. Keyinchalik ko‘plab olimlar yo‘nalishni kengaytirdilar va maxsus sohalarni shakllantirdilar.

- Leksik-semantik yo‘nalish: E.Begmatov, A.Rustamov, N.Mahmudovlar, asosan, leksik birlik va so‘z darajasida tadqiqotlar olib bordilar.
- Sintaktik yo‘nalish: B.O‘rinboyev sintaksis masalalarini chuqur tahlil qildi.
- Nutqiy odatlar va muomala shakllari: E.Begmatov, Y.Tojiyev, S.Mo‘minov, S.Karimov, Sh.Iskandarova, Z.Akbarovalar muloqot jarayonining nutqiy odat (etiket) shakllarini turli jihatdan yoritib, amaliy va nazariy aniqlik kiritdilar.
- Terminografiya va me'yor: A.Mamatov nutq madaniyati va til me'yorlariga oid atama-tushunchalar lug‘atini yaratdi.
- Lingvokulturologik, antroposentrik va kognitiv burilish.

So‘nggi davrlarda o‘zbek tilshunosligida nutqiy etiketning ilmiy asoslari chuqur kengaydi. Bu yo‘nalishda, ayniqsa, prof. N.Mahmudovning hissasi alohida. Til va jamiyat, til siyosati, xalqaro til – ona tili munosabatlari, fan tili va til fani, so‘z o‘zlashtirishda me'yor va milliylik, o‘xshatishlar va milliy nigoh kabi mavzularda u ilgari surgan qarashlar lingvokulturologiya, antroposentrik yondashuv va kognitiv tilshunoslik yutuqlari bilan uyg‘un holda o‘zbek tili nutqiy me'yorlarining o‘ziga xos tomonlarini izchil asoslab berdi. Bu ishlar nutqiy etiketni ijtimoiy-madaniy omillar, kommunikativ vaziyat, milliy mentalitet va kognitiv modellar bilan bog‘liq holda talqin qilishga imkon yaratdi.

O‘zbek tilshunosligida nutqiy etiket tadqiqi axloqiy-didaktik manbalardan boshlab, nutq madaniyati va etika bilan qo‘shaloq o‘rganish bosqichlari orqali, hozirda lingvokulturologik va kognitiv yondashuvlar darajasigacha rivojlandi. Bugungi holat nutqiy etiketni til tizimi, muloqot me'yorlari va milliy-madaniy qadriyatlar kesishgan multidisiplinar maydon sifatida tahlil qilishni taqozo etadi.

Tilning milliylik bilan uzviy bog‘liqligini o‘rganishda o‘xshatish hodisasi alohida e'tibor talab etadi. Professor N.Mahmudov o‘z ilmiy izlanishlarida o‘xshatish (taqqoslash) birliklarining turg‘unlashuvi masalasiga alohida urg‘u beradi. Unga ko‘ra, xalqning turmush tarzi, qadriyatlari, urf-odatlari va tafakkuri o‘z ifodasini aynan o‘xshatish etalonlarida topadi. Olim shunday yozadi: "Xalqning dunyoni ko‘rishi va anglashidagi o‘ziga xoslik, ya'ni milliy-madaniy va milliy-konnotativ ma'lumot bevosita ayni o‘xshatish etalonida o‘z tajassumini topadi" (Mahmudov, 2018).

Bu yondashuvda tilning milliy-madaniy manzarasi (lingvokulturologik tasviri) ko‘plab omillarga bog‘liqligi ta'kidlanadi. O‘xshatishlar orqali xalq tafakkurining o‘ziga xosligi yaqqolroq namoyon bo‘ladi. Mahmudovning nazariyasiga ko‘ra, boshqa unsurlar ko‘pincha implitsit (ya'ni yashirin, bilvosita) ifodalansa, o‘xshatish etaloni albatta eksplitsit, ya'ni bevosita lisoniy shaklda ifodalanmog‘i lozim. Agar o‘xshatish etaloni aniq til vositasi bilan berilmasa, unda o‘xshatish mazmunidagi ibora shakllanmaydi. Bu g‘oya o‘xshatishlarning semantik, sintaktik va estetik turg‘unlashuvi mexanizmini chuqur asoslab beradi.

2026, 2-son, aprel-may
"Ta'lim transformatsiyasi"
Ilmiy-metodik jurnal

BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI TA'LIM TRANSFORMATSIYA JURNALI 2022

N.Mahmudov o‘z ilmiy qarashlarida til va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni, xususan, ish yuritish, rasmiy muloqot va nutq uslublarining nazariy asoslarini chuqur tahlil qiladi. Olimning fikricha, "Jamiyat intizomi andazalari, kamida, taraqqiy qilgan tillarning barchasidagi so‘zlarning semantik sig‘imidan u yoki bu darajada o‘rin olgan bo‘ladi. Bu, shubhasiz, tilning boyligi va inja ifoda imkoniyatlari bepoyonligining, inson va nutqning bir-biriga naqadar musallamligining yana bir muhtasham shohididir" (Mahmudov, 2017).

Bu fikr tilning ijtimoiy me'yor sifatidagi ahamiyatini ochadi: jamiyat intizomi va axloqiy qadriyatlar tildagi semantik maydonlarda o‘z aksini topadi. Demak, jamiyatning ichki madaniy muvozanati bevosita nutq madaniyati orqali ifodalanadi. Har bir tilda mavjud o‘ziga xoslik bilan bir qatorda, barcha tillar uchun umumiy bo‘lgan nozik o‘xshashliklar inson tafakkurining universalligidan dalolat beradi.

Professor S.Mo‘minov o‘z izlanishlarida o‘zbek xalqining muloqot xulqini ilk bor ijtimoiy-lisoniy aspektda tadqiq etdi. U o‘zbek kommunikantlarining faoliyatini kompozitsion bosqichlar, muloqot holatlari va nutq jarayonidagi milliy o‘ziga xosliklar nuqtayi nazaridan tahlil qildi. Olim quyidagi jihatlarni asoslab berdi:

- muloqot xulqining jins, yosh, ijtimoiy maqom va hududiy farqlar asosida shakllanishi;
- kommunikativ strategiya va etika me'yorlarining xalq mentaliteti bilan bevosita bog‘liqligi;
- nutqiy xatti-harakatning milliy tafakkur, qadriyat va estetik mezonlar bilan uyg‘unligi.

S. Mo‘minovning tadqiqotlari o‘zbek tilshunosligida nutqiy etiketni ijtimoiy pragmatika asosida o‘rganishning yangi bosqichini boshlab berdi. Bu yondashuv lingvopragmatika, sotsiolingvistika va madaniyatshunoslik kesishgan nuqtada turgan tahlil usulini ifodalaydi.

Til bu nafaqat aloqa vositasi, balki milliy madaniyat, tafakkur va ijtimoiy qadriyatlarning tilidir. O‘xshatishlar, nutqiy etiket birliklari, muloqot madaniyati va jamiyat intizomi tildagi konnotativ boylik orqali ifodalanadi.

Professorlar N.Mahmudov va S.Mo‘minovlarning izlanishlari o‘zbek tilshunosligida lingvokulturologik, kognitiv va sotsiolingvistik yondashuvlar birligida nutq madaniyatini yangi ilmiy bosqichga olib chiqdi. Bu yutuqlar nafaqat o‘zbek tili, balki butun turkiy tillar nutqiy etiket tizimini o‘rganishda metodologik asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

Z.A.Akbarova[11] murojaatning inson nutqiy faoliyatidagi o‘rni, mavqeyi, bosqichlari, murojaat ifodalashning o‘ziga xos turli shakllari, murojaat maydoni strukturasi, murojaat ifodalovchi ekstralingvistik vositalar, murojaatning inson nutq faoliyatining ajralmas qismi sifatidagi universal hodisa ekanligini tadqiq etadi. Mazkur tadqiqot ishida murojaat shakllarining nutqiy jarayonlarda qo‘llanilishini xoslangan va xoslanmagan leksika, xoslangan va xoslanmagan gap shakllari o‘zbek tili materiallari asosida tadqiq etilar ekan, xoslanayotgan leksikaning alohida ajratilgani diqqatga sazovordir. Bundan tashqari, murojaat ifodalashning ekstralingvistik vositalari haqida ma'lumotlar berilgan.

Olima ularni shartli ravishda tasniflar ekan, ularni uch guruhga bo‘ladi:

a) ishora-harakatga asoslangan jestikulyatsion vositalar;

b) tovushga asoslangan fonatsion vositalar;

d) rang vositasi.

Nutq madaniyatiga bag‘ishlangan mazkur ishlarning aksariyati bir til doirasida o‘rganilgan. Ko‘rinadiki, nutq madaniyati doirasida o‘zbek tilshunosligida olib borilgan ishlar bir til qonuniyatlarinigina o‘rganish bilan cheklangan, shu asnoda qiyosiy planda olib boriladigan ishlarga ehtiyoj mavjuddir, deb aytishga to‘la asosimiz bor. Holbuki, tilning "vazifasi til va madaniyat, til va etnos, til va mentalitet o‘rtasidagi o‘zaro munosabatni tavsiflash va o‘rganishdan iborat bo‘lgan". Madaniyat so‘zi lotincha "colore" so‘zidan olingan bo‘lib, yashamoq, g‘amxo‘rlik qilmoq, bezanmoq, ta'lim olmoq, saqlamoq, ehtiyot qilmoq, ma'naviy boy bo‘lmoq, bunyod qilmoq, qadrlamoq, itoat etmoq va bayram qilmoq kabi ma'nolarni anglatadi. Lekin yuqoridagi talqinlar madaniyat tushunchasini to‘laqonli ochib bermaydi. Madaniyatni hayotning barcha jabhalaridagi eng oliy ko‘rinish sifatida qabul qilish mumkin.

1970-yillardan boshlab, dunyoning qator mamlakatlarida va, xususan, Angliyada madaniyatni anglash natijasi o‘laroq kishilar dunyoqarashida keskin o‘zgarishlar kuzatila boshlandi. Nutqiy etiketning o‘ziga xos xususiyati va madaniyatlararo farqlanishlar muloqotning tub mohiyatidan boshlab o‘rganish ehtiyojini yuzaga keltiradi. Madaniyatlararo muloqot faqat lisoniy tarzda kechmaydi, balki tashqi

[11] Акбарова З.А. Ўзбек тилида мурожат шакллари ва унинг лисоний тадқиқи. Филол. фан номз. дисс автореф. Тошкент, 2007. – Б.11.

2026, 2-son, aprel-may
"Ta'lim transformatsiyasi"
Ilmiy-metodik jurnal

BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI TA'LIM TRANSFORMATSIYA JURNALI 2022

ko'rinish, yuz ifodasi, imo-ishora va jestlar orqali xabarlarni qabul qilishning o'zida muloqot jarayoni boshlanadi[12]. Ba'zan tasdiq ma'nosi nolisoniy vositalar orqali ham ifoda etiladi. Masalan: "Eshitdingmi?" dedim. Yerga qaradi. Uni ortiqcha uyaltirmaslik uchun eshikka qarab yura boshladim-da, "maylimi?' deb so'radim. Javob o'rniga "Osh yemay ketasizmi?" dedi. Bu uning ikkinchi turli qilib aytilgan "mayli" javobi edi (A.Qodiriy, Mehrobdan chayon). Bu holda maqsad, ma'noni ifodalash lisoniy va nolisoniy vositalar yordamida faqat nutqiy etiket uchungina xos bo'lgan ma'nodoshlik qatorini vujudga keltiradi: so'z, so'z birikmasi, gaplar bilan imo-ishoralar sinonimligi hosil bo'ladi. Sh.M.Iskandarova[13] "O'zbek nutq odatining muloqot shakllari" mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasida turli tushunchalarni ifodalash uchun xizmat qiluvchi "vazifa" so'zining ma'nolari nutqiy etiketga tegishliligini, nutqiy etiketning eng asosiy vazifalaridan biri aloqa o'rnatish bo'lib, unda xususiy va ommaviy tarzda aloqa o'rnatish va muloqotni saqlash tushunilishini, bu vazifa so'zlashuvchilarning yoshi, jinsi, tanish-notanishligi, muloqot sharoiti asosida o'ziga xos o'rin tutishini alohida ta'kidlab o'tadi. Nutqiy etiketning ikkinchi vazifasi tinglovchiga qaratilgan iltifot, ya'ni konnotativ funksiyadir. Iltifot vazifasi salomlashish, xayrlashish, uzr so'rash, qutlash vaziyatlarida ko'zga tashlanishi bilan birga uni kuchaytiruvchi maxsus lisoniy birliklar ham mavjud: "labbay – my tears, I'm all in ears", "marhamat – with pleasure", "salomat bo'ling – Be health", "uzr – Sorry" singari. Labbay, oyijon! (O'.Hoshimov, Ikki eshik orasi). What did you say? Do you want to take Dr. Torres home with you? (Nima dedingiz? Doktor Torresni birga uyga olib bormoqchimisiz?) Nutqning boshqaruv (regulyativ) vazifasi ham o'zbek va ingliz nutqiy etiketida muloqotning barcha vaziyatlariga to'g'ri keladi. Aloqa o'rnatishda u yoki bu til birliklarini tanlab ishlatish so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi muloqot madaniyatini belgilaydi. Katta/kichik, erkak/ayol, boshliq/xodim va shu kabi boshqa qator munosabatlarda muomala nutqiy etiket birliklarining me'yorida va o'rinli qo'llanilishi bilan namoyon bo'ladi. Shu asnoda uning boshqaruv funksiyasi amalga oshadi. Xitob (appelyativ) vazifasi ham yuqoridagilarga o'xshab, nutqiy etiketning barcha vaziyatlarida ko'rinadi, u, asosan, tinglovchining diqqatini jalb qilish uchun xizmat qiladi. Nutqiy etiketlarda uni ta'minlovchi vositalarning ham me'yori saqlanadi. Nutqiy etiketning ta'sir etish (perseptiv) vazifasi adresant tomonidan qo'llanilayotgan lisoniy va nolisoniy vositalar natijasida adresatning ta'sirlanishidan iborat bo'lib, bu, ko'pincha, tinglovchining imo-ishora, yuz ifodasi, ayniqsa, mimikalari bilan ifoda etiladi. Nutqiy etiketlarda ularning o'rinliligi muhim sanaladi. Hayajon vazifasi (emotiv) esa hamma birliklarga tegishli bo'lmay, so'zlashuvchilarning me'yoriy tarzda aloqa o'rnatishlari va uni maqsadli olib borish tabiatlari bilan bog'lanadi. Bunda, ko'pincha, muloqotga kirishuvchilarning yosh, jins va asosiysi xarakter xususiyatlari muhim ahamiyat kasb etadi. "Ajabmas, og'zinglar oqarib qolsa. U yonimga cho'kkaladi. - Oling, aylanay, zog'oradan oling. Ertalab yopuvdim. Kimsanboydan xabar bormi?" (O'.Hoshimov, Ikki eshik orasi) Bu o'rindagi tilak, umid, tasalli, dalda, taklif, hol so'rash so'zlovchi tomonidan me'yoriy holatni saqlash va etiket orqali o'zini namoyon etish uchun ishlatilgan. Bu yerdagi masalalar tinglovchi uchungina muhim, so'zlovchi esa o'zbekona lutf - ko'ngil so'rash bilan muloqotni kerakli tarzda davom ettirishga harakat qilmoqda, undagi berilayotgan muammolar u qadar ahamiyatli bo'lmasa ham, aloqa-aralashuvning belgilanganidek saqlanishi zarur. Demak, ko'rinadiki, nutqiy jarayonga qo'yiladigan talablar va til birliklarining vazifalari (boshqaruv, xitob, ta'sir etish, hayajon) nutqiy etiket ifodalanishi bilan o'zaro qorishib, singib ketadi. Nutqiy etiket bunday o'rinlarda ularning me'yorda qo'llanilganligi va o'rinliligi bilan baholanadi. Bunda tilning segment birliklari (so'z, so'z birikmasi, gap) bilan bir qatorda, supersegment birliklar (ovoz toni, balandligi, ohang, tovush sifati) ham o'ta muhim sanaladi.

Hozirgi kunda yer yuzidagi qator mamlakatlar ko'p madaniyatlilikka ega bo'lib, bu mamlakatlar aholisining tinch-totuv yashashi uchun kishilar o'rtasida o'zaro me'yoriy aloqani, nutqiy muloqotning o'ziga xos xususiyatlarini puxta o'rganish, tadqiq etish yanada dolzarb ahamiyatga ega. Madaniyatlararo ziddiyatlarning oldini olish uchun muhojirlar o'z qadriyatlari va urf-odatlarini saqlagan holda, o'sha mamlakat xalqlarining urf-odatlari hamda qadriyatlarini tubdan o'rganishi, ularni hurmat qilishi zarurligi talab etiladi. Muloqot shakllari dastlab didaktika va madaniyatshunoslik masalalari qatorida o'rganila boshlagan bo'lsa, keyinchalik bu jarayonlarda lisoniy birliklar ishtiroki va ularning ahamiyati tilshunoslik fani doirasida tadqiqotlar obyektiga aylandi. Har bir millatning muayyan urf-odatlari, e'tiqodlari asosida shakllangan o'ziga xos nutqiy odatlari mavjud bo'lib, bu belgilar ana shu xalqlarning tillarida yaqqol namoyon bo'lib turadi. Madaniyatlararo muloqot faqat lisoniy tarzda yuzaga chiqmasdan, balki ma'lum

[12] Хусанов Б., Гузомов В. Муомала маданияти. - Тошкент, 2007. – Б.85.
[13] Iskandarova Sh.M. O'zbek nutq odatining muloqot shakllari: filol. fan nomz. … diss. avtoref. - Samarqand, 1993.

xalqlarning tashqi ko‘rinishi, ularning yuz ifodasi, imo-ishora hamda jestlari orqali ham aks etishi mumkinligini alohida ko‘rsatish zarur. Ingliz tilshunosligida nutqiy odatlar Yevropa madaniyati ta’sirida, o‘zbek nutqiy odatlari Sharq madaniyati ta’sirida shakllangan bo‘lib, ularni qiyosiy asosda o‘rganish ikki millat vakillari uchun ham ahamiyatli. O‘zbek va ingliz nutqiy etiketlarining muloqot shakllari ma’lum nutqiy vaziyatlarning o‘zaro o‘xshash va farqli jihatlarini aniqlash orqali yoritiladi.

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek tilshunosligida nutqiy etiket tadqiqi axloqiy-didaktik manbalardan boshlangan holda, bugungi kunda lingvokulturologik, kognitiv va sotsiolingvistik yondashuvlar asosida izchil rivojlanib bormoqda. Nutqiy etiket birliklari nafaqat til tizimining tarkibiy qismi, balki milliy madaniyat, ijtimoiy munosabatlar va kommunikativ xulqning muhim ko‘rsatkichi sifatida namoyon bo‘ladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, nutqiy etiket muloqot jarayonida ijtimoiy maqom, yosh, jins, madaniy muhit va vaziyat bilan chambarchas bog‘liq holda shakllanadi.

Akademik litseylarda nutqiy etiketni o‘rgatish o‘quvchilarda muloqot madaniyatini, ijtimoiy moslashuvchanlikni hamda milliy qadriyatlarga hurmatni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, nutqiy etiketni qiyosiy, pragmatik va madaniyatlararo muloqot nuqtayi nazaridan o‘rganish dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda. Bu yondashuv o‘zbek tilshunosligini zamonaviy til paradigmalari bilan uyg‘unlashtirish, shuningdek, ta’lim jarayonida nutq madaniyatini rivojlantirish uchun mustahkam ilmiy asos yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mahmudov N. O‘qituvchi nutq madaniyati. – Toshkent, 2020.
2. Aminov M., Madvaliyev A., Mahkamov N., Mahmudov N., Odilov Y. Davlat tilida ish yuritish. Amaliy qo‘llanma. – Toshkent: O‘zbekiston nashriyoti, 2020.
3. Iskandarova Sh.M. O‘zbek nutq odatining muloqot shakllari: filologiya fanlari nomzodi dissertatsiyasi avtoreferati. – Samarqand, 1993.
4. Mo‘minov S. O‘zbek nutqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari. – Toshkent, 2001.
5. Begmatov E. Nutq madaniyati va uslub masalalari. – Toshkent, 1998.

Ikramova Aziza Aminovna, Sun’iy intellekt asosidagi adaptiv o‘rganish tizimlari orqali talabalarning individual ta’lim trayektoriyasini loyihalash	136
Jumaniyozova Shahnoza Rajabboy qizi, Alohida ehtiyojmand bolalar bilan ishlashning psixologik xususiyatlari	142
Jumayeva Azizabonu Mo`min qizi, Pragmatik yondashuv orqali talabalarni refleksiv kompetensiyalarini takomillashtirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari	147
Jumayeva Habiba G‘aforovna, Ta’lim jarayonida geymifikatsion texnologiyalar vositasida talabalarning o‘z-o‘zini baholash kompetensiyasini rivojlantirish	156
Hakimova Nargiza Supxonovna, Kattayeva Mehrangiz Nabiyevna, Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini kreativ fikrlashga yo‘naltirilgan innovatsion texnologiyalar	162
Nadirxanova Nozima Alisherovna, Yozma madaniyatlararo muloqotni o‘rgatishda talabalarning sotsiolingvistik qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasi	167
Очилов Фарход Эгамбердиевич, Трансформация семейных традиций и их влияние на патриотическое воспитание молодого поколения в узбекистане	171
Qurbonova Nafisa Saidjonovna, Differensiyal ta’lim va uning pedagogik ahamiyati	178
Qo‘ldoshev Mehriddin Avezmurodovich, Ahmad Donish ma’rifatparvarlik g‘oyalari asosida yoshlarda ma’naviy-axloqiy kamolotni shakllantirishning pedagogik imkoniyatlar	182
G.V. Izbullayeva, Baxodirova Xalimabonu Baxodirovna, Bo‘lajak o‘qituvchilarning media-kommunikativ kompetentligini rivojlantirish metodikasi	187
Qo‘chqorov Nodir Bozorovich, Talabalarda iqtisodiy savodxonlik madaniyatini shakllantirishning innovatsion va intensiv ko‘rinishlari	192
Sadullayeva Zarnigor To‘lqinjonovna, Talabalarning o‘z-o‘zini tarbiyalash darajasini diagnostika qilish va monitoring tizimi	197
Safarova Nigora Nasilloyevna, Transformativ ta’limning metodologik asoslari: Tanqidiy pedagogika, refleksiv yondashuv va sotsiokonstruktivizm integratsiyasi	204
Teshayeva Dilnoza Chori qizi, Talabalarda ekologik mas’uliyat rivojlanishining pedagogik-psixologik omillari	210
D.I.Normatova, Ingliz tili o'qituvchilarini kreativ yondashuv asosida maxsus kompetensiyalarini rivojlantirish texnologiyalari	217
Jumayeva Habiba G‘aforovna, Ta’lim jarayonida geymifikatsion yondashuv orqali talabalarning evristik-kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari	222
Raximbayeva Gulyora Ulug’bekovna, Talabalarda media madaniyat va ijtimoiy identifikatsiya o‘rtasidagi bog‘liqlik	228
Hamdamova Nigora Olimovna, Pedagogical approaches and methods in understanding semantic content	234
Yaxyayeva Shoiraxon Toxirboyevna, Milliy kontent vositasida bolada tahliliy fikrlashni shakllantirish metodikasi	240
Filologiya fanlari	
Зиядуллаева Гульчехра Фатилло Кызы, Семантические синонимы глагола "Пить чай" И их Стилистические особенности	245
Choriyeva Mehriniso Qiyomiddinovna, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Buxoro adabiy muhiti va Abdurahmon Tamkin Buxoriyning adabiy merosi	250
Axmedova Dildora Bahodirovna, Jo‘rayeva Mohigul Baxtiyor qizi, O‘quvchilarning nutqiy etiket kompetensiyasini rivojlantirish masalalari	255
Ahatova Durdona Davron qizi, Omon Muxtor hikoyalaridagi badiiy zamon va inson tasvirining o'ziga xosliklari	260
Baxtiyorova Durdona Ixtiyor qizi, “Korpus texnologiyalari va sun’iy intellekt integratsiyasi asosida ingliz tilida og‘zaki nutq hamda o‘qib tushunish ko‘nikmalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish”	264
Nosirova Dilfuza Mustafoyevna, Masallarning kelib chiqishi va rivojlanish bosqichlari	271
Nosirova Nodirabegim Nodirovna, Til o‘rganish jarayonida sun’iy intellektning integratsiyasi: Lingvistik kompetensiyani shakllantirish, o‘quv jarayonini shaxsiylashtirish va ta’lim samaradorligini oshirish imkoniyatlari	275
To‘raboyeva Muqaddas, Pirimova Madina Ramazonovna, Ona tili o‘qitish metodikasining zamonaviy konsepsiyasi:Taqiqotlar va yondashuvlar (alijon hamroyevning ilmiy maktabi misolida)	279
Ijtimoiy fanlar	